

QADIMIY KESH SIRLARI: SHAHRISABZDAGI “NOMSIZ TEPA” HAQIDA NIMALARNI BILAMIZ?

Sodiqova Shahodat Toxirovna

*Shahrisabz davlat muzey
qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shahrisabz vohasida joylashgan Nomsiz tepa arxeologik yodgorligining o'rganilish tarixi, vohaning qadimgi madaniy taraqqiyotidagi o'rni hamda arxeologik tadqiqotlardagi ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Shahrisabz vohasining tabiiy-geografik xususiyatlari, qadimgi Kesh hududining shakllanish jarayonlari va nomsiz arxeologik yodgorliklarni tadqiq etishning dolzarb masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Shahrisabz, Kesh, Nomsiz tepa, arxeologik yodgorlik, madaniy qatlam, qadimgi manzilgoh, arxeologiya, madaniy meros.

Аннотация: В данной статье анализируются история изучения археологического памятника, условно именуемого «Номсиз тепа», расположенного в Шахрисабзском оазисе, а также его научное значение в исследовании древнего культурного развития Кешского оазиса. Рассматриваются природно-географические особенности Шахрисабзского оазиса, основные этапы историко-археологического развития региона, методы исследования безымянных археологических памятников и актуальные вопросы их сохранения. В ходе исследования использованы историко-археологический анализ, сравнительно-исторический и системный методы. Обосновывается, что изучение таких памятников, как «Номсиз тепа», имеет важное значение для реконструкции древнего градостроительства, системы расселения населения и материальной культуры Кешского оазиса.

Ключевые слова: Шахрисабз, Кеш, Номсиз тепа, археологический памятник, культурный слой, древнее поселение, археология, культурное наследие, градостроительство, материальная культура.

Abstract: This article analyzes the history of archaeological research on the Nameless Tepa site in the Shahrisabz oasis, its role in the ancient cultural development of the region, and its scientific significance. The paper also discusses the geographical features of the Shahrisabz oasis, the formation of ancient Kesh, and the importance of studying unnamed archaeological sites.

Keywords: Shahrisabz, Kesh, Nameless Tepa, archaeological site, cultural layer, ancient settlement, archaeology, cultural heritage.

O'zbekiston hududi qadimiy sivilizatsiyalar shakllangan tarixiy mintaqalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning har bir qarich tuprog'i boy tarix va mo'jizalarga boy. Ayniqsa, Qashqadaryo vohasi va uning markazi bo'lgan Shahrisabz ming yillar davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning muhim markazlaridan biri sifatida rivojlangan.

Tarixiy manbalarda Kesh nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu hudud bugungi kunda ham ko'plab arxeologik yodgorliklari bilan olimlar e'tiborini tortib kelmoqda. Shahrisabz vohasida bronza davridan boshlab ilk temir davri, antik davr va o'rta asrlargacha bo'lgan bosqichlarga oid yuzlab arxeologik obyektlar aniqlangan. Ular orasida tarixiy nomi saqlanmagan, ilmiy adabiyotlarda shartli ravishda **Nomsiz tepa** deb yuritiladigan yodgorliklar ham mavjud. Arxeologiya amaliyotida biror bir tepalik yoki qadimiy kishilar yashagan manzilgohning asl tarixiy nomi vaqt o'tishi bilan unutilgan bo'lsa, u xaritaga shartli ravishda "Nomsiz tepa" nomi bilan kiritiladi. Shahrisabz tumanidagi bu yodgorlik ham aynan shunday obyektlar sirasiga kiradi. Mahalliy aholi orasida maxsus nomi saqlanmagan bo'lsa-da, bu tepalik mutaxassislar uchun o'ta qimmatli tarixiy manba hisoblanadi.[1]

Bunday tepaliklar asosan qadimiy qishloqlar markazi, mahalliy hukmdorlarning qo'rg'oni yoki atrofni kuzatib turuvchi harbiy-strategik maskan vazifasini o'tagan. Bunday yodgorliklar qadimgi aholi manzilgohlari, xo'jalik faoliyati va madaniy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Tepalik hududida va atrofida o'tkazilgan yuzaki tadqiqotlar jarayonida antik davr va ilk o'rta asrlarga oid sopol buyumlar parchasi, mehnat qurollari hamda qurilish inshootlari izlari topilgan. Bu topilmalar ushbu hududda ming yillar ilgari hayot qaynaganidan dalolat beradi. Nomsiz tepa singari yodgorliklarning asosiy xususiyati shundaki, ular ko'pincha hali to'liq arxeologik qazishmalar bilan o'rganilmagan bo'ladi. Shu sababli ularning ilmiy qiymati nafaqat topilmalar, balki madaniy qatlamlarning saqlanganligi va istiqboldagi tadqiqot imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Shahrisabz vohasida arxeologik tadqiqotlar XX asrning birinchi yarmidan boshlab muntazam olib borila boshladi. Keyingi davrlarda o'zbekistonlik va xorijlik arxeologlar tomonidan vohada ko'plab ekspeditsiyalar tashkil etildi. [2]

Tadqiqotlar natijasida qadimgi Kesh hududining rivojlanish bosqichlari, shaharsozlik an'analari, mudofaa inshootlari, hunarmandchilik markazlari va sug'orma dehqonchilik tizimi haqida muhim ilmiy xulosalar olindi. Shahrisabz vohasi hududida aniqlangan arxeologik yodgorliklar orasida yirik shahar xarobalari bilan bir qatorda kichik tepaliklar ham uchraydi. Ularning aksariyati qadimiy qishloq manzilgohlari yoki xo'jalik maskanlari bo'lib, madaniy qatlamlarining boyligi bilan ajralib turadi. Nomsiz tepa ana shunday yodgorliklardan biri bo'lib, uning kelgusidagi chuqur tadqiqotlari qadimgi Kesh vohasining tarixini yanada to'liqroq yoritishga xizmat qilishi mumkin. Qadimiy manzillardan biri Keshdan 2 km janubroqda, Tanxoz daryosi

bo'yida joylashgan va endilikda Nomsiz tepa, deb yuritiladigan obida ham qadimshunoslar tomonidan o'rganilgan. O'tgan asrning 70 yillari boshlarida tepalik atrofida uy-joylar qurila boshlangan. Tepaning o'zi ham chor tarafdin tarashlanib, mahobatli ko'rinishdan mahrum bo'lgan. Tepalik egallagan maydon dastlab 2,5-3 ga atrofida bo'lgan. Hozirda u egallagan joy 0,35 ga bo'lib, uzunligi 47m, tni esa 3 m dan 12 m gacha boradi. Ilk o'rta asrlarda bu joyda hashamatli qasr qad rostlab turgan. Zamonlar keshishi bilan imoratdan tuproq uyumi-tepalik qoladi. 5 m balandlikda paxsa devor qoldiqlari bor. Shimoliy qanotda to'rttadan kam bo'lmagan imoratlar qoldig'i saqlanib qolgan. Janubiy qanotda 3 ta katta va bir kichik xona o'rni bilinib turadi. Qasr kamida ikki bor qayta qurilishni boshdan kechirgan, deb taxmin qilinadi. Qurilish ashyosi paxsa va xom gishtdan iborat bo'lgan. Irrinchi qurilish davrida xonalar chiqindilar- -kul, tosh, sopol siniqlari bilan to'ldirilgan.

Tepalikning janubiy etagi qazib ko'rilganda, yondosh kelgan paxsa devorlarning ust qismiga duch kelinadi. Yondosh devorlar qalinligi 2,3 m ga yetadi. Tekshiruvlar davomida sopol buyumlar majmuasi aniqlanadi. Manzilning quyi qatlamidan olingan ashyolar nafis kulollik idishlari bo'lib turli shakl va hajmda ekanligi diqqatga loyiq. Idishlarning yuqori qismi qizil-jigarrang tusda. Yuqori qatlamdan olingan idishlar soni juda kam. Quyi madaniy qatlamlardan qazib olingan sopol ashyolar milodning III-IV asrlariga mansub, deb qaralib, Parmonqultepa obidalaridan topilgan va xuddi shu davr bilan sanaladigan xurma, qadah, xurmachaga o'xshash piyola, cheti to'lqinsimon jomga nisbat beriladi. Qadimshunoslar Keshning Nomsiz tepasida saqlanib qolgan o'tmish ospori atiqalarini yana Chimqo'rg'on suv havzasi hududidagi Jangaltepa idishlari bilan qiyos etadilar. Jangaltepa yodgorliklari ham milodning III-IV asrlarida vujudga kelgan, deb qaraladi. [3]

Tanxozdaryo bo'yidagi Nomsiz tepani qadimshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish, uning milodning IV-V asrlarda vujudga kelgan, ikki qavatdan iborat qasr qoldig'i ekanligini ko'rsatadi. Qasr katta va kichik xonalardan tashkil topib, uzoq muddat davomida faoliyat ko'rsatgan. Dastlab, u istehkomga ega qo'rg'on (milodning IV-V asrlari) sifatida foydalanilgan bo'lsa, asta-sekin vayrona holiga keladi. Binoning ikkinchi umri to'liq ta'mirlashdan keyin davom etadi.

Ta'mirlash jarayonida qasr o'zining avvalgi tarovatini yo'qotadi. Xonalar 2-3 m gacha pasayadi, yordamchi, kichik imoratlar esa batamom olib tashlanadi. Qasrning ikkinchi hayoti V asr o'rtalari- VI asr boshlari, deb sanaladi. Mahobatli qasrning tanazzuli Eftaliylarning Qashqa vohasida bir muddat hukm surishi bilan bog'liqligi ehtimoldan xoli emas. [4] Qadimshunoslarning Nomsiz tepani ochishi Eftaliylarning ta'sir doirasi kesh viloyati hududida ham amal qilganligini ko'rsatadi. Eftaliylar Tanxoz bo'yidagi qo'rg'onni VI asr boshlarida vayron qilgandan so'ng, bu joyda hayot so'ngan, qaytib kishilar yashamagan. Shahrisabzdagi Nomsiz tepa — shunchaki xaritalardagi belgi emas, balki xalqimizning o'tmishidan so'zlovchi ko'hna guvohdir. U shaklan "nomsiz"

bo'lsa-da, ma'nan va ilmiy jihatdan O'zbekistonning boy madaniy merosining ajralmas qismidir. Ushbu yodgorlikni o'rganish va asrab-avaylash ajdodlarimiz tarixini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shahrisabz tarixi. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2011 y
2. Qadimgi Kesh- Shahrisabz tarixidan lavhalar. "Sharq nashriyot – matbaa konsernining Bosh tahririyati Toshkent -1998 y
3. **O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.** "Kesh", "Shahrisabz", "Arxeologiya" maqolalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
4. <https://uz.wikipedia.org>